

## **1-SINF O'QUVCHILARIGA DIDAKTIK MATERIALLAR VA O'YINLAR ASOSIDA TA'LIM BERISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR**

*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 5-umumiy o'rta ta'lif maktabi*

*Boshlang'ich sinfo qituvchisi*

***Voxidova Marxabo Maxmudjanovna***

**Annotatsiya:** ushbu maqolada 1-sinf o'quvchilariga didaktik materiallar va o'yinlar asosida ta'lif berish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** didaktik materiallar, o'yinlar, ta'limiy, bilim, chirolyi yozuv, nutq...

Ona vatanimiz ta'lif tizimi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad mifik faoliyatini demokratlashtirish uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lif to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'gom fikr demakdir. Bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo'lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchdir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishning muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalarini o'rganishdir. Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor, uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e'tibori bilan o'lchanadi. Ta'lif tizimi esa, 1-sinfdan boshlanadi. Aynan 1-sinf o'quvchilarni darslarga qiziqtirish asosiy ta'lif poydevori hisoblanadi. Bunda albatta ona tili va o'qish savodxonligi darsi muhim ahamiyatga ega. Ushbu darsning asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning

ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlashdan iboratdir. 1-sinf o'quvchilari boshqa o'quvchilarga nisbatan o'yinlarga moyilligi ko'proq va darslarda e'tiborni talab etadilar. Shu sababli 1-sinflarda barcha darslarni didaktik materiallar va o'yinlar asosida tashkil etish yaxshi samara beradi.

### **Quyida shunday didaktik o'yinlarni taqdim etmoqchiman.**



Ma'lumki, o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha oddiy savol berilsa, ularda qiziqish sust bo'ladi. Lekin, yuqorida kabi shart qo'yib, so'ngra savol berilsa, o'quvchilarda qiziqish, mas'uliyat, ahillik kabi xislatlar shakllanadi.

**Didaktik o'yin** – ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va chuqurlashtirishga qaratilgan jarayondir.

Didaktik o'yinlarni o'quvchilarni bir nechta guruhlarga ajratgan holda yoki individual shaklda ham o'tkazish mumkin. Dars davomida bunday o'yinlarni guruh tarzida tashkil etish o'quvchilar o'rtaida muloqot madaniyatining shakllanishiga, matematika faniga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga, diqqatini jamlashga xizmat

qilibgina qolmay ularda hozirjavoblik, chaqqonlik, o‘zaro hurmat, jamoa bo‘lib harakat qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

**«Besh daqiqa» o‘yini.** Bu o‘yinni boshlang‘ich sinflarda xohlagan mavzuni o‘rganishda qo‘llash mumkin. O‘quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko‘rmasin. O‘yinni o‘qituvchi yoki a’lochi o‘quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O‘quvchi besh daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O‘quvchilar yozishni bir vaqtida tugatishi shart.

## “Rasmlar tilga kirsa” didaktik o‘yini.

**So‘zlar yoziladi va ularga so‘roq beriladi.**



Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayoniga mos tarzda ta’lim standartlari, yangi avlod darsliklari, metodik qo‘llanmalar, hattoki, multimedya texnologiyalari asosida “jonli” darsliklar yaratilgan. Bu esa o‘z-o‘zidan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Shunday ekan, har bir dars uchun ijodiy yondashib, yangiliklar kiritish, ya’ni, innovatsion texnologiyalarda ishlash faoliyatini boyitib borish lozim. Buning uchun o‘qituvchidan, eng avvalo, bilim, malaka va shu o‘rinda o‘z mahoratini va san’atini to‘laqonli namoyish etish, hamda o‘z faniga doir yangiliklardan xabardor bo‘lish talab etiladi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. X.Ibragimov, U.Yo‘ldoshev, X. Bobomirzaev. Pedagogik psixologiya. T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2007-y.
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ish sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Toshkent, 2019-yil. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi.
3. Internet saytlari. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net), [www.edu.uz](http://www.edu.uz), [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)...
4. Yuldashev, O. T. (2020). Development prospects of investment insurance product “Unit-Linked”. *International Finance and Accounting*, 5, 1.